ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NEOLOGIZMLARNING KORPUS TAHLILI YORDAMIDA TADQIQ ETILISHI VA ULARNING KONKORDANSLARI ASOSIDA MA'LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li,
Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi

Tilshunoslikda yozma matnlarni turli manbalardan yig'ilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilish borasidagi izlanishlar hozirda katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu kabi tahlillar tilning zamonaviy holatini o'rganish, undagi funksional uslublar, uslubiy rang-baranglik, terminologik tizim, leksik-semantik o'zgarishlar hamda neologizmlarning shakllanish jarayonini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Matnlardagi so'zlarning termin xususiyati hamda yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'rganish jarayoni murakkabligi bilan ajralib turadi, chunki ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lmagan so'zlarni aniqlash va ularni segmentlash uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zarur.

XXI asrda axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi, inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida tilning asosiy kommunikativ vosita sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi. Bunda, ayniqsa, yangi so'zlarning — neologizmlarning — tilga tez sur'atda kirib kelishi, ular bilan bog'liq tilshunoslik masalalarining yangicha metodlar yordamida o'rganilishini taqozo qilmoqda. Tilga yangi kirib kelayotgan birliklarni aniqlash, ularning shakllanish mexanizmini ochib berish, semantikasi, uslubiy xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini tahlil etish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Neologizmlarni o'rganishda an'anaviy yondashuvlar hozirgi zamonaviy til jarayonlarini to'liq aks ettirishda yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu bois bugungi tilshunoslikda korpus lingvistikasi yondashuvi keng qo'llanilmoqda. Korpus lingvistikasi asosida neologik birliklar katta hajmdagi real yozma va og'zaki matnlar asosida avtomatik yoki yarim avtomatik usullar orqali aniqlanadi. Bu jarayonda konkordanslar — ya'ni, so'zlarning real nutqdagi kontekstual ko'rinishlari — asosiy empirik manba sifatida xizmat qiladi. Konkordanslar yordamida neologizmlarning sintaktik, leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ularni tasniflash va guruhlash imkoniyatlari kengayadi.

Tilga kirib kelayotgan yangi birliklarni aniqlash bilan birga, ularni tizimlashtirish, leksik-semantik maydon bo'yicha guruhlash va ma'lumotlar bazasi shaklida to'plash ham dolzarb masala sanaladi. Chunki bu jarayonlar orfografik, morfologik va semantik barqarorlikka erishish, yangi so'zlarning lug'at tizimiga kiritilish mezonlarini belgilashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, neologizmlarni elektron matnlar korpusi asosida o'rganish nafaqat zamonaviy tilshunoslik metodlarini takomillashtirish, balki til siyosati, terminologiya yaratish, tarjima nazariyasi kabi sohalarda ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada jahon tilshunosligida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Rossiya xalqlar do'stligi universiteti katta o'qituvchisi K. Chilingaryan[1] kompyuter texnologiyalari evolyutsiyasi tufayli fanga kirib kelgan korpus tushunchasi hamda uning lingvistik funksiyalarini nazariy jihatdan asoslab, korpusni ilmiy metodologiya bo'lgani bois u hissiy bilish ustidan mutloq ustunlikka ega ekanligini ta'kidlaydi.

Tilshunos A. Hurskeynin[2] ma'lum til matnining korpusi lemmatizatsiya jarayoni orqali katta va grammatik muvozanatga ega lug'at uchun asos bo'la olishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, og'zaki kommunikatsiyada ishlatiladigan so'zlar uchramasligini matnga asoslangan leksikografik korpusning kamchiligi sifatida baholaydi.

V. Tyubert[3] so'zlarning ma'nolarini matn namu-

[1] Чилингарян К.П. Корпусная лингвистика: теория vs методология. RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, 2021 – Vol.12. No.1. – С. 196 – 218.
[2] Hurskainen A. New Advances in Corpus-based Lexicography. / Journ.: Sabinet. Vol. 13. 2023. – 114 p.
[3] Teubert W. Corpus Linguistics and Lexicography. /Journ.: Corpus Linguistics. – 137 p.

nalaridan (kontekst) topish korpus tilshunosligining asosiy tamoyili emasligini ta'kidlaydi. Tadqiqotimiz doirasida ushbu nazariy qarashlar neologizmlarning korpus texnologiyasi orqali tahlil qilish usulini ishonchliroq ekanligini isbotlaydi.

Yangi so'z va terminlarning korpus asosida tahlil qilinishi ko'pincha insonning to'g'ridan-to'g'ri nazorati ostida bo'lmaydi. Shu sababli korpus lingvistikasi an'anaviy tilshunoslikda qo'llanilgan intuitiv yondashuvlar va shablonlarga tayanmaydi. Aksincha, real til materiallariga asoslangan holda oldindan kutilmagan leksik birliklar va ularning kontekstual xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Korpus tahlilida qo'llaniladigan miqdoriy ko'rsatkichlar, xususan, chastota — inson sezgisi orqali bevosita qabul qilib bo'lmaydigan obyektiv vositadir. Chastotaning idrok qilinishi esa, aslida, subyektiv jarayondir. Shu bois bunday tahlillar orqali olingan raqamli natijalar intuitiv taxminlarga nisbatan ishonchliroq va aniqroq ilmiy asosga ega bo'ladi.

Tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi, NLP (Natural language processing = Tabiiy tilni qayta ishlash), huquqshunoslik, psixologiya kabi sohalardagi tadqiqot ishlarida ham korpus metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

K. Otis hamda E. Sagi[1] tadqiqotlarida korpusda so'zlar tahlilining eng foydali xususiyatlaridan biri sifatida semantik vektorlarni *(so'z ma'nolarini matematik tarzda ifodalash texnikasi, mat. fiz. to'g'ri chiziqning muayyan son qiymatiga va yo'nalishga ega bo'lgan kesmasi.)*[2] so'zlar va iboralar misolida hisoblash va solishtirishni keltirishadi.

Sh. Hamroyevaning ilmiy ishlarida korpus lingvistikasining nazariy asoslari chuqur tahlil etilgan bo'lib, unda mualliflik korpusining xususiyati, lingvistik va amaliy jihatlari alohida o'rganilgan[3]. Tadqiqotda mualliflik uslubini aniqlash, uni statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

O. Abdullayeva esa internetdagi til materiallari va ularni korpusga kiritish masalasini ko'rib chiqqan[4]. U korpus va internet matnlarining umumiy va farqli jihatlarini, ularning lingvistik ahamiyatini hamda zamonaviy tahlil usullari bilan bog'liq muammolarni tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar O'zbek tilshunosligida korpus texnologiyalarining qo'llanilishi va ularning amaliy qiymatini ochib berishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Ushbu olimlarning ishlari o'zbek tili uchun korpus asosida neologizmlarni avtomatik aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish, bu orqali ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilishga oid nazariy qarashlarni aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda o'zbek tilida faol qo'llanila boshlagan yangi so'zlar, xususan, xorijiy manbalardan kirib kelgan neologizmlar sezilarli darajada ko'paymoqda.

Tadqiqotchi A. Omonov[5] o'zbek tilida ommalashib borayotgan yangi so'zlarga to'xtalib, *"mental"* qo'shma so'zi tobora ommalashayotganiga e'tibor qaratadi. U asosan *"arifmetika"* so'zi bilan birgalikda qo'llanishi xususida fikrlarini keltirib o'tadi. Bundan tashqari, ingliz tilidan kirib kelgan *"trend", "hit"* kabi so'zlarning semantik xususiyatlarini yoritishga harakat qiladi. Tilshunosning ta'kidlashicha, o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlardagi lingvistik xususiyatlarning o'ziga xos jihatlari ularni tematik guruhlarga bo'lish yo'li bilan atroflicha tahlil qilinishi kerak. O'zbek tiliga mansub ayrim xorijiy so'zlarning lingvistik, semantik, grammatik va morfologik xususiyatlarini aniqlash orqali ularning shakllanish asoslari aniqlandi. M. Nasirovaning ilmiy tadqiqotida esa neologizmlarning vujudga kelish omillari va ularning leksikografik talqini tahlil qilingan[6]. Tilshunosning fikriga ko'ra, neologizm lug'atlarini yaratish jamiyat uchun muhim sanaladi. Leksikografiya tendensiyalarining lug'atlarni yaratishdagi mavqeyini "karoneologizmlar" misolida tahlil qiladi. Mana shunday yangi so'zlarning har tomonlama tahlili korpusga asoslanishi foydalanuvchiga ancha qulay bo'lishi anglashiladi.

Mana shunday tadqiqotlar asosidagi korpus tahlili u yoki bu so'zni leksik, morfologik va semantik tahlil

[1] Otis K., Sagi E. Phonaesthemes: A Corpus-Based Analysis/ Proceedings of the annual meeting of the cognitive science society, 2008. – 66 p.

[2] Https://Www.Izohli.Uz/Words/VEKTOR, 2024.


[3] Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)…дисс. – Бухоро, 2018. – 253 б.; Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Монография. – Тошкент, 2020. – 229 б.

[4] Nosirova M. Leksikografiya tendensiyalarining neologizmlar lug'atlarini yaratilishidagi mavqei/ https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1507/3965. Vol.:4. – Issue:5. — 2024

[5] Omonov A. O'zbek leksikografiyasida neologizmlarning tahlili./ So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Vol.: 7. - № 5. – 2024.

[6] Nosirova M. Leksikografiya tendensiyalarining neologizmlar lug'atlarini yaratilishidagi mavqei/ https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1507/3965. Vol.: 4. – Issue-5. — 2024.


qilish va bu bo‘yicha muayyan darajada xulosa qilish imkoniyatini beradi. Masalan, *trend* so‘zini tahlilga tortsak, uning konkordansi n-gram modeli asosida quyidagicha natija bo‘lishi mumkinligi aniqlandi (1-rasm):



1-rasm. **“Trend” so‘zining AntConc orqali qilingan tahlili**

Tahlil natijalariga ko‘ra, bu so‘z asosan moda, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar kontekstida faol ishlatilmoqda. *“Trend”* ko‘pincha fe’llar bilan birikib, *“trend bo‘ldi”, “trendga kirdi”, “trendni ko‘rdim”* kabi shakllarda uchraydi. Bu esa uning sintaktik jihatdan moslashuvchanligini va gap tuzilmasida faol ishtirok etishini ko‘rsatadi. Leksik-semantik jihatdan so‘z yangi, ommaviy va dolzarb hodisalarni ifodalovchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Grammatik jihatdan esa so‘z hozircha asosan o‘z shaklida qo‘llanmoqda, ayrim hollarda ot tusidagi qo‘shimchalar bilan ergashmoqda *(“trendni”, “trendga”)*. Ushbu kuzatishlar *“trend”* neologizmining o‘zbek tiliga kirib kelish jarayoni davom etayotganini va uning semantik, sintaktik imkoniyatlari keng ekanini tasdiqlaydi. Korpus asosida bunday birliklarni o‘rganish ularni tizimlashtirish va zamonaviy lug‘aviy bazalar yaratish uchun muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tahlilning natijalarini ham “AntConc” orqali kuzatish mumkin (2-rasm):



2-rasm. **“AntConc” tahlili natijalari**


Ushbu jadvaldagi tahlilga ko‘ra, *“trend doirasida”* birikmasi eng ko‘p (4 marta) uchragan bo‘lib, bu so‘zning ko‘proq mavzu doirasini belgilovchi birlik sifatida xizmat qilayotganini anglatadi. Shuningdek, *“trend va”, “trend aziya”, “trend barcha”* kabi birikmalar ham kuzatiladi. Bu birikmalar so‘zning boshqa birliklar bilan erkin ulanib, turli sintaktik kontekstlarda ishlatilishini ko‘rsatadi.

1-jadval

Korpus konkordansining n-gram modeli asosida erishilgan lingvistik natijalari

Sifat + trend	Fundamental trend Yangi trend Mustahkam trend Salbiy trend
Trend + fe’l	Trend rivojlanmoq Trend bo‘ladi Trend ekan Trend hisoblanmoq Trend kuzatilmoq Trend yaratmasa
Trend + ko‘makchi + fe’l	Trend doirasida shakllanmoq Trend uchun olmoq Trend deb atamoq Trend ham o‘zgarmoq
Trend + va + ot	Trend va tendensiya
Trend + nom	Trend Aziya
Trend + morfema	Trendda Trenddan Trendga
Trend + ot	Trend nashri
Trend + ot + fe’l	Trend yo‘nalishini o‘zgartirmoq

Keyingi tahlilimizda tadqiqot obyekti sifatida *target* so‘zi tanlangan (3-rasm, 2-jadval).




3-rasm. **“Target” so‘zining AntConc orqali qilingan tahlili**

2-jadval

AntConc tahlili asosida “Target” so‘zi bilan tuzilgan birikmalar

Sifat + target	Foizlik target
Target + fe’l	Target o‘rnatmoq
Target + ko‘makchi + fe’l	Target doirasida bo‘lmoq
Target + va + ot	Targer va monitor guruh
Target + nom	Target o‘quv markazi
Target + morfema	Targetlar, targetim, targetda
Target + ot	Terget ko‘rsatkichi, target guruh, target darajasi, target rejimi
Target + ot + fe’l	Target darajasida shakllanmoq

Jadvalda *“Target”* so‘zi turli grammatik shakllarda birikmalar *sifat, fe’l, ot, morfema* kabi kategoriyalar orqali qo‘llanganini kuzatish mumkin. Bu orqali so‘zning semantik hamda sintaktik jihatlarini aniqlash mumkin. Kuzatuv natijasida neologizmlarning korpus tahlili asosida tajriba olib borganimizda so‘zni o‘zlashtirish uch xil holatda sodir bo‘lganini kuzatishimiz mumkin:



Ushbu tahlil neologizmlarning tilda qanday shakllanishi va turli grammatik tamoyillar orqali o‘zlashish jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bizningcha, korpus asosida bunday tasniflanishi o‘zbek tilidagi yangi so‘zlarning rivojlanishiga va zamonaviy til talablariga moslashishiga hamda lingvistik xulosalarga kelishga ko‘maklashadi. Neologizmlarning korpus tahlili tilshunoslikda juda muhimdir, chunki u yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, qo‘llanish doirasi, ma’nosi va tarqalishini o‘rganish imkonini beradi. Korpus tahlili yordamida neologizmlarning lingvistik xususiyatlari va ularning jamiyatdagi rolini aniqlash mumkin.

Korpus tahlili yordamida tilning turli sohalaridagi yangi so‘zlar va iboralarni aniqlash mumkin. Buning uchun tilshunoslar katta hajmdagi matnlarni tahlil qilib, yangi so‘zlar yoki o‘zgaruvchan so‘z shakllarini izlashadi. Korpusda neologizm sifatida ko‘rsatilgan so‘zlar, ko‘pincha o‘ziga xos ma’no yoki shaklga ega bo‘lib, ilgari mavjud bo‘lgan so‘zlar yoki iboralarning yangi variantlari bo‘ladi. Bunday so‘zlar ko‘pincha texnologik, ilmiy, madaniy yoki ijtimoiy kontekstlarda yuzaga keladi. Korpus tahlili yordamida neologizmlarning qo‘llanish kontekstini aniqlash mumkin. Masalan, yangi so‘zlar qanday matnlarda, qanday mavzularda ishlatilayotganini bilish orqali ular haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin. Neologizmlarning konteksti ularning ma’nosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ba’zi neologizmlar biror ijtimoiy hodisa yoki texnologik yangilik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuning uchun ularning paydo bo‘lish sabablari va qo‘llanish o‘rinlarini aniqlash muhim.

Yuqoridagi namunalardan muayyan darajada xulosa qilish mumkinki, neologizmlar ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriyaga kuchli ta’sir qiladi. Shu orqali o‘zbek tili leksikoniga o‘zlashish darajasi tobora ortib bormoqda. Masalan, *web, blekout, city* va shu kabi so‘zlarda ishlatishda ayrim ikki xil yondashuvni kuzatamiz. O‘zbek tiliga kirib kelayotgan har bir atamaning ma’nosi va uning sofligini ta’minlovchi ilmiy yechimlar ishlab chiqilishi kerak. Qolaversa tabiiy til sofligini saqlashda avvalo olimlarning ilmiy izlanishlari, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar, o‘zbek tili borasida markaziy tashkilotlar tomonidan chiqarilayotgan qarorlar hamda ularni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri yo‘naltirish ishlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Neologizmlar so‘z boyligini kengaytirish va yangi tushunchalarga moslashishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, tilning kishilar o‘rtasida kommunikativ vosita sifatida ahamiyatini oshiradi. Neologizm orqali kirib kelgan yangi sohaviy tushunchalarning paydo bo‘lishi tilga yangi elementlar qo‘shadi, bu esa tilni boyitadi. Tilning jonli hayoti bilan bog‘liq tushunchalar orqali tilning ilmiy, ya’ni akademik darajasi ham ko‘tariladi. Biroq chetdan kirib kelgan tushunchalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilish va uni hech qanday til me’yorlariga amal qilmagan holda ommaga taqdim etish tilning sofligini buzadi, qolaversa, yangi tushunchalar avvaldan mavjud bo‘lgan tushunchalarning o‘rnini egallab borishi mumkin. Masalan, hozirgi kunda tezpishar taomlar tayyorlash kabi xizmat ko‘rsatish joylarda ingliz tilidan olingan tushunchalar barchaning nutqiga kirib ulgurdi. Bu esa kompyuter lingvistikasi va NLP sohasida ushbu nutq

birliklarini tahlil qilish, ularning semantik konseptlarini aniqlash, o‘zlashish darajasini aniq baholashimiz lozimligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy til taraqqiyotida neologizmlar tilning leksik bazasini boyituvchi, yangiliklarni ifodalovchi, ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchan til vositalaridan biri sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ularni tizimli ravishda o‘rganish esa zamonaviy lingvistik yondashuvlarni, xususan, korpus lingvistikasi imkoniyatlarini qo‘llashni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotda neologizmlarning aniqlanishi, tasniflanishi va ularning konkordanslari asosida elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish tamoyillari ilmiy asosda ko‘rib chiqildi. Korpus tahlili vositalari neologik birliklarni real til matnlari asosida aniqlash, ularning qo‘llanish chastotasi, kontekstual holatlari, semantik xususiyatlari va stilistik ahamiyatini o‘rganish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, til resurslarini zamon talablariga mos tarzda boyitish, yangilash va kodlash imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, neologizmlarni korpus asosida tahlil qilish ularni intuitiv emas, balki empirik va statistik asosda tahlil qilishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, konkordans tahlili asosida tuzilgan elektron baza lingvistik tadqiqotlar, lug‘at tuzish ishlari va til siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida neologizmlarning avtomatik tanib olinishi, ularning semantik tarmoqlarda joylashtirilishi, tilni raqamlashtirish jarayonida muhim rol o‘ynashi kutiladi.

Shunday qilib, hozirgi tadqiqotda neologizmlarning aynan korpus lingvistikasi asosida tahlil qilinishi, ularning konkordanslari orqali ma’lumotlar bazasini shakllantirish tamoyillari ilgari surilishi nazariy va amaliy jihatdan alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv yangi leksik birliklarni nafaqat intuitiv, balki statistik va sistematik asosda aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari tadqiqot davomida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Neologizmlar ishtirokidagi zamonaviy matn korpuslaridan foydalanish tilshunoslikda obyektivlikni ta’minlaydi va ularning so‘zlashuv va yozma nutqda qay darajada faol qo‘llanayotganini aniqlash imkonini beradi.

2. Korpus asosida konkordanslarni tahlil qilish neologizmlarning kontekstual ma’nosini ochib berish, ularni funksional nuqtayi nazardan qaysi qatlamga mansubligini belgilashda samarali metod hisoblanadi.

3. Neologizmlarni leksik-semantik jihatdan turlarga ajratish ularni lug‘atga kiritish, tartibga solish va tizimlashtirish uchun zarur bo‘lgan bosqichdir.

4. Ma’lumotlar bazasini shakllantirishda so‘zning shakllanish modeli (morfologik struktura), qo‘llanish chastotasi, kontekstdagi vazifasi kabi mezonlar asosida yuritiladigan tizimiy yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Rezyume. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek tilida yuzaga kelayotgan neologizmlarni tadqiq qilish, ularning morfologik-semantik xususiyatlarini aniqlash va konkordanslar asosida tizimlashtirish masalalari korpus lingvistikasi metodlari asosida tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida AntConc dasturi vositasida neologik birliklarning chastotasi, kontekstdagi ishlatilishi, kollokatsion bog‘lanishlari va strukturaviy modellariga e’tibor qaratildi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi zamonaviy elektron korpuslardan olingan konkordanslar asosida neologizmlar ma’lumotlar bazasi shakllantirish tamoyillari asoslab berilgan. Maqolada korpus lingvistikasi asosida neologizmlarni tadqiq etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi hamda zamonaviy til resurslarini shakllantirish bo‘yicha nazariy qarashlar keltirilgan.

Resume. This article examines the study of neologisms emerging in contemporary Uzbek through corpus linguistic methods, focusing on the identification of their morphological and semantic features and their systematization based on concordance data. The research utilizes the AntConc software to analyze the frequency, contextual usage, collocational patterns, and structural models of neological units. Additionally, the principles for constructing a neologism database based on concordances extracted from modern Uzbek electronic corpora are substantiated. The article presents both theoretical and practical aspects of investigating neologisms using corpus linguistics, and outlines conceptual approaches to the development of modern linguistic resources.

Resume. В данной статье анализируются вопросы исследования неологизмов, возникающих в современном узбекском языке, выявления их морфолого-семантических особенностей и систематизации на основе конкордансов с применением методов корпусной лингвистики. В процессе исследования с помощью программы AntConc было уделено внимание частотности неологических единиц, их употреблению в контексте, коллокационным связям и структурным моделям. Кроме того, обоснованы принципы формирования базы данных неологизмов на основе конкордансов, извлечённых из современных электронных корпусов узбекского языка. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты изучения неологизмов с позиции корпусной лингвистики, а также представлены теоретические подходы к формированию современных языковых ресурсов.